bartaraf etishni, yuqori texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. "Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish, jamiyat hayotida tub o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, unda innovatsiyalarni keng joriy etishga asoslangan yangi iqtisodiy tizim modeliga o'tish bilan amalga oshmoqda" [9]. Texnologik rivojlanish jarayonlari va iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarining transformatsiyasi o'zaro bog'liq bo'lib: ilmiy va texnologik rivojlanishning yuqori sur'atlari, tegishli institutsional shart-sharoitlarni ta'lab qiladi. Shu bilan birga, yangi texnologik ukladni shakllantirish vositasi vazifasini bajaruvchi institutsional tuzilma ayni paytda uning elementi hamdir. Rus olimi Ye.Yasin tomonidan ta'kidlanganidek "agar institutsional tizim yaxshi yo'lga qo'yilgan va bozor munosabatlarini (mulk huquqi, raqobat, kontraktni himoya qilish) muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlasa, texnologik modernizatsiya hech qanday to'siqlarsiz amalga oshadi, intensiv innovatsiyalar oqimi shakllanadi, iqtisodiyot jonlanadi [10].

Yangi iqtisodiy munosabatlar tizimida institutsional tuzilmaning transformatsiya jarayonini O'zbekistonlik olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, D.Tojiboyevaning fikricha, "Raqamli iqtisodiyot faqatgina insonning intellektual salohiyati tufayligina emas, balki institutsional muhit yaratilishi, bu muhitning biznes va iste'molchilar amaliyoti, iqtisodiy agentlarning axborot va kommunikatsion komponentlar bilan ta'minlanishining shakli, usullarini o'zgartirishiga ta'sir ko'rsatishi ham muhim o'rin tutadi [11]. Bu jihatdan raqamli iqtisodiyotga yondashish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga berilgan ta'riflarda aks etadi. Muhimi raqamli iqtisodiyot yangi institutsional muhitni yaratilishiga olib keladiki, u raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun mahsulot ishlab chiqarish sifatining yaxshilanishi va narxining ommabop bo'lishi, muvofiq ravishda infratuzilmani barpo etishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Qaroriga ko'ra, 2020–2022-yillarda jami 268 ta loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan [12]. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining institutsional tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish vektorlarini aniqlash uchun transformatsiyaga ta'sir etuvchi shart-sharoit va omillarning hozirgi darajasini baholash zarur. Rasmiy institutlarning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi ko'pgina indekslarda O'zbekistonning ko'rsatkichlari ancha pastligi amalga oshirilayotgan islohotlarning qonunchilik bazasini shakllanmaganligiga bog'liq. Qonunchilik doirasidagi bo'shliqlar, byurokratiya, mulkiy huquqlarni zaif himoya qilish, sud tizimining nomukammalligi, jiddiy korrupsiya komponentlari O'zbekiston Respublikasining institutsional muhitiga xos bo'lgan transformatsion o'zgarishlar jarayonini murakkablashtiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi tarkibiy tuzilishi ikki omilni natijasida zaruriy o'zgarishlarning mohiyatini belgilaydi: yangi yuqori texnologiyali tarmoqlarni yaratish va yangi texnologiyalar asosida an'anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish, sifat o'zgarishlari bilan birga ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional sohalarda islohotlarni amalga oshirish. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlat sanoat siyosatining asosiy vazifasi sifatida samarali institutsional tuzilmani shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ilm-fan, biznes va davlatning muvaffaqiyatli hamkorligi shakllaridan biri bo'lgan innovatsion klasterlarni yaratishdir. Bunday vosita turli sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy loyihalarni amalga oshirish uchun ilm-fan, davlat va biznesning tashkiliy uyushmasini tuzishni o'z ichiga oladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, innovatsion sohada davlat, biznes va ilm fan o'rtasidagi munosabatlar sheriklik, teng huquqli bo'lishi, umumiy maqsadlarga ega bo'lishi, uch tomonning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan moliyalashtirilishi kerak hamda olinadigan xavf va natijalar teng taqsimlanishi kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash o'rinliki, innovatsion klasterlar O'zbekistonning keyingi rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Chunki bu uslub tadqiqotni moliyalashtirish hisobiga katta daromad olinishini ta'minlaydi va natijalarni tijoratlashtirish masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion klaster modeli iqtisodiyotni institutsional takomillashtirishda ma'lum sifat ko'psatkichlari bilan ham ajralib turadi. Bularga, birinchidan, klaster a'zolarining o'zaro ta'siri darajasi bilan tavsiflangan klaster bog'lanishi, shuningdek, ularning zarur resurslardan foydalanish imkoniyatlari kiradi. Ikkinchidan, innovatsion klaster modelining o'ziga xos xususiyati bu sinergetik samaradir. Bu elementlarning innovatsion imkoniyatlar yig'indisi bilan aniqlanadigan va klaster elementlarining o'zaro sinergetik ta'siriga miqdoriy baho beradigan ajralmas xususiyatdir. Shuningdek, innovatsion klaster modelining asosini uning yadrosi hisoblanmish uyushmalar (korxonalar) va o'sish zaxiralari tashkil etadi. Mazkur korxonalar klaster faoliyati natijalariga asosiy hissa qo'shadi. O'sish zaxiralari esa zarurat tug'ilganda klasterning innovatsion jarayonlarini tashkil etishdagi kamchiliklarni bartaraf eta oladi va butun innovatsion tizimning takomillashuvi va strategik rivojlanishi bo'yicha choralarni belgilaydi. Innovatsion klasterlar faoliyatining yakuniy natijasi butunlay yangi texnologiyali tarmoqlar va mahsulotlardir.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni institutsional takomillashtirishning keyingi ustuvor yo'nalishlaridan biri bu davlat sektori tomonidan ishlab chiqariladigan va taqdim qilinadigan xizmatlarni xususiy sektorga uzoq muddatli taqdim qilinishini ta'minlash (ba'zan 30-yilgacha), tavakalchiliklarni xususiy investorga o'tkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning ko'p qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirish shakli bo'lgan davlat-xususiy sherikligi (DXSH) bo'lib hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida DXSH nisbatan yangi soha boʻlishiga qaramasdan, qisqa muddatlarda oʻziga xos milliy tizim va yagona siyosat yoʻlga qoʻyilishiga erishildi. Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”gi Qonuni [13]. qabul qilinishi va Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish Agentligining tashkil etilishi buning yorqin ifodasidir. Yangi Oʻzbekiston strategiyasiga koʻra iqtisodiy taraqqiyotda uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat budjeti xarajatlarini prognozlashtirish DXSH ishtirokchilari uchun loyiha xarajatlarini toʻgʻri rejalashtirishga imkon yaratmoqda. Bu omil boshqa investitsiyaviy faoliyat turlarining muhim omili boʻlgani kabi DXSH loyihalarini amalga oshirishda, aytish mumkinki, hal qiluvchi oʻrinda turadi. Chunki, investorlar uchun maʼlumotlar toʻliqligi, oshkoraligi va haqqoniyligi bozorni chuqur oʻrganishga va turli yoʻqotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.




1-rasm: Davlat xususiy sheriklikning afzalliklari [14]

DXSH mexanizmlari takomillashib borishi sohada ijtimoiy yoki infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bilan bogʻliq anaʼanaviy yoʻnalishlar bilan innovatsion loyihalar ham faollashib bordi. Xususan, DXSH tizimi orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, biznes-inkubatorlari, texnoparklar va texnopolislar barpo etish yangi yoʻnalish sifatida qoʻllanilmoqda. DXSH oʻzining bir qator afzalliklari bilan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yanada ragʻbatlantirgan holda, iqtisodiyotda investitsiyalar oqimini kengaytiradi, boʻsh turgan resurslarni faollashtiradi, davlat va xususiy sektorlar oʻrtasida oʻzaro muvozanatlashgan manfaatdorlikni taʼminlaydi va eng asosiysi jamiyatdagi qator ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni bartaraf etishga turtki boʻladi. DXSH tizimi samarasi oʻlaroq ham davlat, ham biznes, ham jamiyat bundan naf koʻradi. Shu bilan birga, ushbu tizim boshqa iqtisodiy jarayonlar singari oʻziga xos xususiyatlar, qonuniyatlar va tavakkalchiliklarga ega boʻlib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi chuqur malaka, professional tajriba, barqaror iqtisodiy salohiyat singari bir nechta omillardan samarali foydalanishni talab etadi.

Iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlaridan yana bir yoʻnalishi bu iqtisodiy rivojlanish muammolarini yengish imkonini beruvchi kichik biznes tuzilmalarini rivojlantirishdir. Zamonaviy kichik korxonalar yuqori sifatli mahsulotlarni yaratishga va maʼlum bir mamlakatning talabini toʻla qoplashga qodir. Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes tuzilmalari ham innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan boʻlib, bu Oʻzbekiston iqtisodiyotining yangi yuqori rivojlanish darajasiga koʻtarilishiga yordam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi oʻrni va uni rivojlantirishning obyektiv zaruriyati quyidagilar orqali izohlanadi: birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil

etuvchi asosiy tarmoqlardan biridir, mazkur sohaning taraqqiy etishi mamlakatda iqtisodiy faollikni ta'minlashga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorning sifatli iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatning o'sishi va aholining samarali bandligini ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining yechimi ham mazkur tarmoqning rivojlanishiga bog'liq. Ikkinchidan, globallashuv va iqtisodiyotning integratsiyalashuvi jarayonida jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida aynan kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kam mablag' sarfini talab qilishi, harakatchanligi va bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchan talablariga tezda moslasha olish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish kabi imkoniyatlarga egadir [15].

Iqtisodchi olim P.Z.Xoshimov o'zining ilmiy qarashlarida tadbirkorlik faoliyati xavfsizligi deganda, tadbirkorlik faoliyati subyekti amal qilishining barcha bosqichlarida, birinchi navbatda, iqtisodiy, huquqiy va boshqa salbiy oqibatlarga olib keluvchi ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilinganligini tushunish lozim" deya ta'rif keltirgan [16]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligi, barcha mulklarning maqbul nisbatiga asoslanib, subyektning barqaror faoliyat olib borishga, qiyinchiliklar va tahdidlarga munosib javob berishga, rivojlanish va takomillashtirish imkonini beradi. Subyektning maqsad va vazifalari tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini yarata olish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning quyidagi asosiy funksional komponentlarini baholash orqali aniqlash mumkin deb hisoblaymiz:

- funksional komponentlarga omillarning sezilarli ta'sir ko'rsatishi;
- iqtisodiy xavfsizlikning funksional komponentlarini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy jarayonlarning ta'sirini aniqlanishi;
- iqtisodiy xavfsizlikning funksional komponentlarini ta'minlashda iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlanishi.

Bizningcha to'liq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki resurslardan to'liq va samarali foydalanish orqali erishish mumkin bo'ladi. Bunda resurslarning barcha darajalarida boshqaruvni samarali tashkil etish va moliyaviy tizimlardan oqilona foydalanishni talab etilishi kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligining holatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tahdidlarning har biri moddiy, ma'naviy va moliyaviy zararni keltirib chiqaradi. Aniqlangan tahdidni kamaytirish va oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora va tadbirlar uning minimal darajagacha kamaytirish imkonini yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishda o'nta funksional tarkibiy qismdan: moliyaviy, intellektual, kadrlar, texnologik, huquqiy, kuch, axborot va ekologik tahdidlarni bartaraf etishga har tomonlama yondashuvni talab qilinishi kerak. Mazkur omillar xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda va sohada barqarorlik, xavfsizlik va moliyaviy qudratga ega bo'lishni ta'minlaydi. Biznes yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni zararsizlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini belgilash orqali subyektning tahdidlardan himoya qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda iqtisodiy xavfsizlik samaradorligini oshirishda tahdidlarni zararsizlantirishdagi asosiy strategik yo'nalishlar [17]

| № | Yo'nalish | № | Yo'nalish |
|---|---|---|---|
| 1. | Ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash bilan muntazam monitoring olib borish | 6. | Texnik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash |
| 2. | Prognozlash, rejalashtirish va barqarorlikni ta'minlashda to'liq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish | 7. | Axborot xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni oldini olish choralarini ko'rish |
| 3. | Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlarining miqdoriy va sifat qiymatlarini hisoblash hamda axborot sohasidagi tahdid va xavflar salohiyatini aniqlash | 8. | Hujjatlarni yuritishni tartibga solish va uni saqlash choralarini ko'rib borish |
| 4. | Xo'jalik yurituvchi subyektning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni nazorat qilish | 9. | Boshqaruvda samarali qaror qabul qilish, rag'batlantirish choralarini ko'rib borish |
| 5. | Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish | 10. | Kompaniya rahbariyati va xodimlarning jismoniy himoyasini ta'minlash |

Umuman olganda iqtisodiy xavfsizlik tizimi va uning samarali faoliyatiga ko'maklashuvchi chora-tadbirlarni doimiy ravishda yangilash va qayta ko'rib chiqishni talab etilishi kerak. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy xavfsizlik choralarini samarali amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir vaqtning o'zida nazorat va muvofiqlashtiruvchi vazifalarni bajarishi lozim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishda tahdidlarni tasniflash va tasniflar asosida iqtisodiy xavfsizlikni baholash hamda kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tizimlarini samaradorligini oshirishga erishiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2016 yildagi 66,8 foizdan bugungi kunda 51,8 foizga pasaydi. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qoʻshilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi. Ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining toʻrtdan bir qismi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining 98,1 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 74 foizdan ortigʻi mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda. 2022-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 25,9%, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi – 97,0%, qurilishda – 72,4%, eksportda – 29,5 %, importda – 49,4 % va xizmatlar sohasidagi – 51,5 % ulushi aniq koʻrsatilgan.

2-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi dinamikasi [18]

| № | Koʻrsatkichlar | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | YAIM | 66,8 | 65,3 | 62,4 | 56,0 | 55,7 | 54,9 | 51,8 |
| 2. | Sanoat | 45,3 | 41,2 | 37,4 | 25,8 | 27,9 | 27,0 | 25,9 |
| 3. | Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 98,6 | 98,5 | 98,3 | 97,9 | 96,7 | 96,0 | 95,3 |
| 4. | Xizmatlar sohasi | 58,2 | 58,3 | 56,0 | 53,2 | 51,8 | 51,7 | 48,4 |
| 5. | Qurilish | 66,9 | 64,8 | 73,2 | 75,8 | 72,5 | 72,4 | 72,4 |
| 6. | Eksport | 26,0 | 22,0 | 27,2 | 27,0 | 20,5 | 22,3 | 29,5 |
| 7. | Import | 46,8 | 53,6 | 56,2 | 61,6 | 51,7 | 48,7 | 49,4 |
| 6. | Bandlik | 78,2 | 78,0 | 76,3 | 76,2 | 74,5 | 74,4 | 74,4 |

Jahon amaliyotida iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur’atlariga erishgan dunyoning birorta ham davlati iqtisodiy oʻsishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishda kichik biznes tuzilmalarining ahamiyatini kamaytirgani yoʻq. Kichik biznes tuzilmalari har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, yirik va oʻrta korxonalar bilan taqqoslaganda, ular makroiqtisodiy vaziyatning oʻzgarishiga osonroq moslashadi, bu esa ma’lum bir mintaqadan ishchi kuchi oqimini kamaytirishga yordam beradi.

Bugungi kunda kichik biznes tuzilmalari tobora koʻproq iste’molchilar ehtiyojlariga yoʻnaltirilgan, turli xil tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradi, dinamik rivojlanishi va individual ishlab chiqarish tavsifi bilan ajralib turadi. Bir qator iqtisodchilar kichik biznes tuzilmalarini bozorlarga raqobatni olib kiruvchi deb hisoblashadi, chunki bozorlarda qancha kichik korxonalar mavjud boʻlsa, ularning monopollashuv darajasi shunchalik past boʻladi. Shu bilan birga, yirik biznes, qoida tariqasida, bozorni monopollashtirishga va raqobat mexanizmini cheklashga qaratilgan.

Kichik biznes tuzilmalari ham mamlakat ichida, ham xorijda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarning ajralmas ishtirokchilari hisoblanadi. Kichik korxonalar yuqori darajada harakatchan va innovatsiyalarga tez moslashadi, bu esa ularga oʻrta va yirik korxonalarga qaraganda ancha qisqa vaqt ichida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kichik korxonalar oʻrta va yirik korxonalarga nisbatan bozorda eng zaif hisoblanadi, chunki ular katta kapitalga ega emas. Bu holat kichik biznesni rivojlantirishni faol davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Davlat kichik biznes tuzilmalarining rivojlanishiga sezilarli ta’sir koʻrsatadi hamda barcha xoʻjalik subyektlari uchun umumiy “oʻyin qoidalari” ni shakllantiradi. Bundan tashqari, tadbirkorlik tuzilmalari va davlatning oʻzaro hamkorligi, davlat funksiyalarining bir qismini tadbirkorlik tuzilmalariga, masalan, davlat-xususiy sheriklik doirasida “topshirish” imkonini beradi.

Inqiroz hodisalari sharoitida biznes tuzilmalarining iqtisodiy xavfsizligi muammosi dolzarb boʻlib bormoqda. Tadbirkorlik tuzilmalariga yuklatilgan soliqlarning yuqori darajasi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar, aholining xarid qobiliyatining pasayishi – bularning barchasi davlatning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga ta’sir qiladi. Tadbirkorlik tuzilmalarini rivojlantirishda barqarorlikning yoʻqligi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga salbiy ta’sir koʻrsatmoqda[19]. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda tadbirkorlik tuzilmalarining ehtiyojlariga javob beradigan rivojlantirishga yoʻnaltirilgan tegishli institutsional muhitning mavjudligi milliy iqtisodiy xavfsizlikni institutsional ta’minlashga sezilarli ta’sir koʻrsatmoqda. Davlat iqtisodiy tizimining innovatsionlik darajasi institutsional muhitning sifatiga ham bogʻliq.

Xulosa sifatida institutsional tuzilmani transformatsiyasi ekzogen, endogen omillar va kombinatsion omillar ta’sirida sodir boʻladi. Raqamli iqtisodiyotga oʻtish sharoitida real institutlarning vertual shaklga ega boʻlish tendensiyasini qayd etish mumkin. Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlariga bu innovatsion texnologiyalar, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, ilm-fan, biznes va davlatning muvaffaqiyatli hamkorligi shakllaridan biri boʻlgan innovatsion klasterlar, tavakalchiliklarni xususiy investorga oʻtkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning koʻp qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirish shakli boʻlgan davlat-xususiy sherikligi (DXSH) hamda kichik biznes tuzilmalari nafaqat alohida mintaqaning, balki butun davlatning rivojlanishi uchun iqtisodiy asos boʻlib hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asosi – bu barqaror, samarali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mexanizmlarini tizimlashtiradi va davlat boshqaruvida iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining har birining manfa'atlarini mutanosibligini ta'minlaydigan tamoyillarni joriy etuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan rasmiy va norasmiy institutlar to'plamidir.

Institutsional tuzilmani transformatsiyasi ekzogen, endogen omillar va kombinatsion omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida real institutlarning vertual shaklga ega bo'lish tendensiyasini qayd etish mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslarini takomillashtirish yo'nalishlariga – bu innovatsion texnologiyalar, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot, ilm-fan, biznes va davlatning muvaffaqiyatli hamkorligi shakllaridan biri bo'lgan innovatsion klasterlar, davlat-xususiy sherikligi (DXSH) hamda kichik biznes tuzilmalari bo'lib hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi institutsional tizimini quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

- barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash;
- iqtisodiy agentlarning turli xil manfaatlarini amaliyotga joriy etish;
- jahon iqtisodiy jarayonlarining yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi sharoitida davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlardan himoya qilish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. –21.12. 2022-yil.
2. Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. – 2-е изд. – Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
4. Букреев В. В., Рудык Э. Н. Противодействие внешнему управлению стратегическими промышленными предприятиями России // Альтернативы. – 2019. – № 2. – С. 92-101;
5. Латов Ю. В. Российская теневая экономика в контексте национальной экономической безопасности // Экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2007. – Т. 5. – № 1. – С. 16-27.
6. Abulqosimov H.P. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2018-yil.
7. Ma'murov B.X. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning konseptual asoslari va xorij tajribasi. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2020-yil № 4. –B.44.
8. Disruptive technologies: Advances that will transform life, business and the global economy. McKinsey&Company – URL: http: //www.mckinsey.
9. Mamatov A.A., Jo'rayev T.T. Klasterlarni tashkil etish va ularning
10. faoliyatini yo'lga qo'yishning xorij tajribasi. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" elektron jurnali. –№1. –2020. –B.12.
11. Ясин Е. Институциональные ограничения модернизации, или приживется ли демократия в России? // Вопросы экономики. –2011. –№11. –С. 5.
12. Tojiboyeva D. Raqamli iqtisodiyot institutsional nazariyaning yangi yo'nalishi sifatida. "Iqtisod va moliya" jurnali 2021, –№1. –B. 95.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 28 apreldagi PQ-4699-son Qarori.
14. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. https://lex.uz/docs/.
15. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.
16. Maxmudov Jasurbek. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning obyektiv ahamiyati. –Iqtisodiyot va ta'lim, –2021-yil, 6-son. –B. 137.
17. Xoshimov P.Z.. Tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi va tizimi. "Iqtisod va moliya" ilmiy jurnali.–T.: 2015/11. –24-b
18. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.
20. Развадовская Ю. В. Институциональное обеспечение развития отраслей нового этапа технико-экономического развития в условиях решоринга промышленного производства: опыт государственных промышленных корпораций / Ю. В. Развадовская, А. В. Бабикова, А. В. Ханина, И. К. Шевченко // Инженерный вестник Дона. – 2015. –№ 2. Ч.2.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.